



O'ZBEKISTON TASHQI ISHCHI KUCHI MIGRATSIYASINING MIQDORIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI

Sokhibova Aziza Shukhratjonovna

TDIU magistr

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17813085>

ARTICLE INFO

Received: 1st December 2025

Accepted: 2nd December 2025

Published: 4th December 2025

KEYWORDS

mehnat migratsiyasi, inson kapitali, brain-drain, brain-gain, inson kapitali, ishchi kuchi, ish haqi, immigratsiya, investitsiya, indeks, pul o'tkazmalar (remittances), ishchi kuchining samaradorligi iqtisodiy rivojlanish, malakali ishchi kuchi, bilim iqtisodiyoti, mehnat bozori, aholi daromadlari, aholi jon boshiga daromad, uzoq umr ko'rish.

ABSTRACT

Tashqi mehnat migratsiyasi inson kapitalini rivojlantirishda strategik omil bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, pul o'tkazmalari yordamida oilalarning farovonligi ortishi, bolalarning ta'limga kirish imkoniyatlari kengayishi, kuzatiladi. Tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda inson kapitalidan samarali foydalanish hamda migratsiyaning salbiy oqibatlarini kamaytirish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mazkur magistrlik dissertatsiyasida O'zbekiston Respublikasida tashqi mehnat migratsiyasining inson kapitali rivojlanishiga ta'siri har tomonlama tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – xorijiy davlatlarga ishga ketayotgan o'zbekistonlik fuqarolarning mehnat faoliyati, ular orqali kelayotgan pul o'tkazmalari va ularning ta'lim, sog'liqni saqlash kabi inson kapitali ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash va baholashdan iboratdir.

Mehnat migratsiyasi xalqaro migratsiya oqimlarining eng e'tiborga molik tendensiyalaridan biri hisoblanadi. Hamma zamonlarda mehnat migratsiya iqtisodiy rivojlanishning muhim omili hisoblangan bo'lib, bugungi globallashuv jarayonida mamlakatlar va mintaqalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning ortib borishiga xizmat bo'lmoqda. Mehnat migratsiyasi nafaqat migrantlarning kelib chiqish mamlakatiga, balki ularning ko'chib borayotgan mamlakatiga ham ta'sir ko'rsatadi va asosan uning ta'siri inson kapitali rivojlanishida kuzatiladi. Ushbu dissertatsiyada mehnat migratsiyasining inson kapitaliga ta'siri bo'yicha ijobiy va salbiy jihatlar tizimlashtirilib, ta'sirlarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi taklif etiladi. Mehnat migratsiyasiga oid siyosatlarni tahlil qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqotda kelib chiqish va manzil mamlakatlari mehnat migratsiyasini samarali va adolatli boshqarish orqali uning xalqaro darajadagi foydalaridan to'laqonli foydalanishi zarurligi tushuntiriladi.

Globallashuv jarayonida jahon xo'jaligi tobora rivojlanib, mamlakatlararo integratsion aloqalar kuchayib borgan sayin, mehnat migratsiyasi ham intensivlashib bormoqda. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar, rivojlanayotgan ikkinchi dunyo mamlakatlari va iqtisodiy qoloq mamlakatlar o'rtasidagi farqlarning uzluksiz kengayib borayotgani ham ushbu jarayonlarni jadallashtirishga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda.

Mehnat migratsiyasi bu - zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ushbu bosqichida, insonlarning munosib ish va yuqori daromad izlash maqsadida amalga oshiradigan migratsiyaning alohida

shakli hisoblanadi. Xususan, mehnat migratsiyasi iqtisodiyoti zaif va kam rivojlangan mamlakatlarda bandlik va ish haqi bilan bog'liq keskin muammolarni hal etishning muhim vositasiga aylangan. Siyosiy mustaqillikka erishgan bo'lsa-da, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda murakkab muammolarni hal qilish zarurati oldida turgan O'zbekiston ham XX asrning o'ziga xos hodisasi – mehnat migratsiyasi jarayonidan chetda qolishi mumkin emas.

Mehnat migratsiyasi rivojlangan davlatlarda ishchi kuchi yetishmovchiligini bartaraf etish va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shish imkonini beradi. Misol uchun, Germaniya - pasayib borayotgan tug'ilish ko'rsatkichi va keksayib borayotgan aholi tufayli muhandislik hamda tibbiyot sohasida malakali mutaxassislarni jalb qilish siyosatini yuritmoqda. Kanada - iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun immigratsiyaga tayanadi, so'nggi o'n yillikda mamlakatdagi mehnat bozorining 35% o'sishi migrantlar hissasiga to'g'ri keladi. AQSh - mamlakat ishchi kuchining 17% i migrantlardan iborat bo'lib, ular yuqori va past malakali ish o'rinlarini to'ldiradilar.

Biroq, rivojlangan davlatlar uchun ham mehnat migratsiyasining ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Ular bir tomondan ishchi kuchi yetishmovchiligini bartaraf etsa, boshqa tomondan ijtimoiy integratsiya muammolari va davlat xizmatlariga bo'lgan bosim kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

O'zbekiston uchun muhim masalalardan biri migrantlarning ta'lim va kasbiy tayyorgarligi darajasi hisoblanadi. Prezident Mirziyoyev ushbu muammoni ta'kidlab, quyidagicha bayonot bergan: "Biz mehnat kasblarini va chet tillarini o'rgatishni kengaytiramiz hamda migrantlar uchun majburiy qilamiz. Biz mehnat migrantlariga yuqori maosh to'laydigan Yevropa va Osiyo davlatlarida ishlashlariga ko'maklashamiz. Ular qayerda bo'lishidan qat'i nazar, davlat xizmatlarini masofadan olish imkoniyatini yaratamiz." Bu davlatning migrantlarni qo'llab-quvvatlash va ularning ta'lim darajasini oshirishga bo'lgan qat'iy intilishidan dalolat beradi. Inson kapitalining ahamiyati mehnat unumdorligini oshirishda, texnologik taraqqiyotni jadallashtirishda va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda namoyon bo'ladi. Inson kapitali ishchi kuchining ishlab chiqarish jarayonida qanchalik samarali va moslashuvchan bo'lishini belgilaydi. Yaxshi ta'lim olgan, sog'lom va malakali ishchi kuchi yangi texnologiyalarga moslashish, innovatsion jarayonlarni yaratish va murakkab muammolarni hal qilish kabi funksiyalarni samarali bajara oladi, bu esa har qanday zamonaviy iqtisodiyot uchun juda muhimdir.

Inson kapitali rivojlantiriladigan resurs hisoblanadi, uni maqsadli investitsiyalar orqali oshirish mumkin. Ta'lim olish, kasbiy malaka oshirish, sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish orqali inson o'z salohiyatini kengaytiradi. Bu kabi investitsiyalar nafaqat shaxsiy farovonlikni, balki jamiyat taraqqiyotini ham ta'minlaydi. Ular shaxsiy daromadlarning oshishi, ish bilan bandlik imkoniyatlarining kengayishi, hayot sifati yaxshilanishi kabi ijobiy natijalar beradi. Shu bilan birga, ijtimoiy foyda ham yuzaga keladi - ya'ni, umumiy mahsuldorlik oshadi, jinoyatchilik darajasi kamayadi, fuqarolik faolligi kuchayadi.

Biroq inson kapitalining yana bir muhim jihati - u eskirishi va yo'qolishi mumkinligi (depreciation)dir. Qandaydir salohiyatga ega bo'lgan inson, agar uzoq muddat davomida ishsiz bo'lsa, ta'lim olmasa yoki sog'lig'i yomonlasha boshlasa, o'z kapitalining ma'lum qismini yo'qotadi. Texnologiyalar tez yangilanayotgan davrda mavjud ko'nikmalarning dolzarbligi tezda pasayishi mumkin. Shu bois, inson kapitalini doimiy ravishda yangilab borish, ya'ni uzluksiz ta'lim olish, kasbiy o'sishni ta'minlash va sog'liqni asrash zarur bo'ladi. 2024 yil 25 oktyabrda e'lon qilingan Prezident qarori va farmoni asosida O'zbekiston Respublikasi mehnat migratsiyasini boshqarish tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Ushbu huquqiy hujjatlarga ko'ra, ilgari faoliyat yuritgan Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi o'rniga Vazirlar Mahkamasi huzurida yangi – Migratsiya agentligi tashkil etildi. Ushbu islohot mamlakatda mehnat migratsiyasining davlat tomonidan tartibga solinishini yanada takomillashtirish, fuqarolarning

huquq va manfaatlarini samarali himoya qilish hamda xususiy bandlik agentliklari bilan hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.

Yangi agentlikka bir qator strategik vazifalar yuklatildi, xususan: mehnat migratsiyasi siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish, migratsiyaga oid jamoat xizmatlarini ko'rsatish va eng muhimi — fuqarolarni xorijda xavfsiz va qonuniy mehnat faoliyatiga jalb etishni ta'minlash. Shu bilan birga, yangi agentlik 2025 yil 1 yanvardan boshlab xususiy bandlik agentliklarini litsenziyalash va ularning faoliyatini nazorat qilish huquqiga ega bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, mehnat migratsiyasida noqonuniy ishga yuborish holatlarini kamaytirish, ishsizlikni pasaytirish va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, xususiy bandlik agentliklari uchun litsenziya olishdagi moliyaviy talablar soddalashtirildi. Avvalgi tartibda zarur bo'lgan 8 500 baravar eng kam ish haqi miqdoridagi moliyaviy zaxira endilikda 2024 yil 1 dekabrda boshlab 4 000 baravar qilib belgilandi. Bu esa kichik va o'rta biznes sub'yektlarining bandlik sohasiga kirib kelishini rag'batlantiradi va xususiy sektor ishtirokini kengaytiradi.

Islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. 2026 yil 1 yanvarga qadar xususiy bandlik agentliklariga fuqarolarni chet elga ishga yuborish, ularni saralash va joylashtirish kabi funksiyalar to'liq topshiriladi. Bu holat, o'z navbatida, davlatning asosiy rolini me'yoriy huquqiy tartibga solish, monitoring, xavfsizlik va huquqlarni himoya qilish bilan cheklashga xizmat qiladi. Xususiy sektor esa bevosita amaliy faoliyatni, ya'ni ishga joylashtirish jarayonini olib boradi.

Yangi Migratsiya agentligi tarkibida migratsiya jamg'armasi tashkil etildi. Ushbu jamg'arma xorijga ishga ketuvchi fuqarolarning kasbiy va tilga oid tayyorgarligi, hujjatlar rasmiylashtirish, ish vizalarini olish kabi xizmatlarni moliyalashtirish bilan birga, tibbiy sug'urtaga ega bo'lmagan migrantlarga yordam ko'rsatish kabi ijtimoiy himoya mexanizmlarini ham o'z ichiga oladi. Bu jamg'arma mehnat migrantlarining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy muhofazasini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Yana bir muhim yangilik shundaki, xorijiy ish beruvchilar tomonidan taklif etilayotgan bo'sh ish o'rinlari haqida ma'lumotlar Migratsiya agentligining elektron platformasi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali e'lon qilinadi. Bu esa axborot ochiqligini ta'minlash, fuqarolar uchun tanlov imkoniyatlarini oshirish hamda sohadagi korrupsion xatarlarni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda 2,3 milliondan ortiq O'zbekiston fuqarolari xorijda mehnat faoliyati olib bormoqda. Shulardan taxminan bir million nafari Rossiya Federatsiyasida ishlamoqda. Bu statistika O'zbekiston uchun mehnat migratsiyasi masalasi faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim yo'nalish ekanligini ko'rsatadi. Bugungi kunda dunyo bo'ylab mehnat migratsiyasi tabiiy jarayon sifatida qaraladi. O'zbekistonda esa fuqarolarni xorijga xavfsiz va tizimli ravishda yuborish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. So'nggi ikki yil ichida Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan rivojlangan davlatlarga 70 ming nafar fuqaro ishga yuborildi.

Shuningdek, xorijda ishlashni istagan fuqarolar muayyan xarajatlarga duch keladi. Shu sababli, ular ishchi vizani olish, chipta xarid qilish, xorijiy tilni o'rganish va malaka tasdiqlash xarajatlarining bir qismini o'z hisobidan qoplaydi. Biroq xalqaro yoki unga tenglashtirilgan til sertifikatiga ega bo'lganlarga til o'rganish xarajatlarining 50 foizi qaytarib berilishi belgilangan.

Mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan ijobiy ishlardan biri sifatida, xalqaro miqyosda, xususan Xalqaro Migratsiya Tashkiloti va rivojlangan davlatlar bilan hamkorlikda mehnat muhojirlarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha muhim ishlarga alohida e'tibor

qaratilmoqda. Shu bilan birga, 2030 yilgacha bo'lgan davr uchun O'zbekiston Respublikasining migratsiya sohasidagi davlat siyosati konsepsiyasini ishlab chiqish ustida ham tizimli ishlar olib borilmoqda. U mehnat migrantlari uchun ijtimoiy himoya borasida teng huquqlilikni ta'minlashni ko'zda tutadi.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tashabbusi bilan, Germaniyaning 25 ta kompaniyasi bilan tashqi mehnat migratsiyasi agentligi o'rtasida shartnomalar tuzilgan. Hozirda O'zbekiston fuqarolari ushbu kompaniyalarda vaqtincha ishlamoqda. Yana 5 ta kompaniya bilan muzokaralar olib borilmoqda. So'nggi uch yilda 821 nafar yurtdoshimiz Germaniyaga ishlash uchun yuborilgan, 1670 nafar fuqaro esa Germaniyada ish faoliyatini davom ettirish maqsadida tayyorgarlik ko'rmoqda.

Mehnat migratsiyasi O'zbekiston taraqqiyot yo'lini shakllantirayotgan eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy hodisalardan biriga aylanib bormoqda. 2024-yil yakuniga kelib, O'zbekistondan 1,35 milliondan ortiq fuqaro xorijiy davlatlarda, xususan Rossiya, Qozog'iston, Janubiy Koreya va Germaniya kabi mamlakatlarda mehnat faoliyati bilan shug'ullanmoqda. Har yili minglab migrantlar o'z mehnat shartnomalarini yakunlab yurtga qaytadi. Ular nafaqat moliyaviy resurslar — pul o'tkazmalari shaklida, balki kasbiy tajriba, til bilimlari va ko'p hollarda yangi kasbiy ko'nikmalar bilan qaytmoqda. Mehnat harakatining bunday dinamik oqimi migratsiyani mamlakatning inson kapitalini — ya'ni aholining bilim, malaka, salomatlik va mehnat unumdorligini rivojlantirish vositasiga aylantirish imkonini bermoqda.

Biroq, bu jarayon qator muammolarni ham keltirib chiqaradi. Ulardan eng dolzarblaridan biri — bu "brain drain" (intellektual salohiyatning yo'qolishi), ya'ni yuqori malakali mutaxassislarning xorijiy mehnat bozorlariga ketib qolishidir. Bundan tashqari, ko'plab migrantlar yetarli tayyorgarliksiz yoki ularning malakasi xorijda tan olinmagan holda safarga chiqmoqda, bu esa "ko'nikmalar nomutanosibliigi" holatiga olib keladi — ya'ni, ularning haqiqiy imkoniyatlari ish talablari bilan mos kelmaydi. Natijada ularning ishlab chiqarishdagi samaradorligi va daromad olish imkoniyati pasayadi, shuningdek, ularning chet eldagi tajribasidan mamlakat ichkarisida foyda olish imkoniyati cheklanadi. Yana bir muammo esa — bu ijtimoiy ajralish bo'lib, uzoq muddat davomida oila va jamiyatdan uzoqda bo'lish psixologik bosim, reintegratsiyada qiyinchiliklar va ayniqsa, yuqori migratsion faollikka ega qishloq hududlarida jamoaviy uyg'unlikning susayishiga olib keladi.

Ushbu xavf va imkoniyatlarni inobatga olgan holda, O'zbekiston uchun mehnat migratsiyasini boshqarishda kompleks va istiqbolli yondashuvni qabul qilish zarurati tug'iladi. Bunday yondashuv migratsiyaning inson kapitalini rivojlantirishdagi rolini migratsiya siklining barcha bosqichlarida — safar oldidan, xorijdagi mehnat faoliyati jarayonida va yurtga qaytgach — maksimal darajada samarali qilishga yo'naltirilishi lozim. Bu esa o'z navbatida, fuqarolarni chet elga chiqishdan oldin zarur bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash, xorijda bo'lgan vaqtida ularni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish hamda qaytganlaridan so'ng ularni ichki mehnat bozoriga samarali integratsiya qilishni nazarda tutadi. Mehnat migratsiyasini vaqtincha ishsizlikka qarshi choradan ko'ra, milliy kadrlar siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida ko'ra olgandagina, O'zbekiston uni inson kapitalini barqaror rivojlantirish va inklyuziv iqtisodiy o'sishning real drayveriga aylantira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi.** "Mehnat migratsiyasi bo'yicha yillik hisobotlar (2018–2024)." Toshkent.
2. **O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi.** "Tashqi mehnat migratsiyasi ko'rsatkichlari." Rasmiy statistik ma'lumotlar bazasi. <https://stat.uz>

3. **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM).** "Mehnat migratsiyasi va uning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri" tahliliy hisobotlari.
4. **Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO).** *International Labour Migration Reports (Central Asia)*. Geneva: ILO Publishing.
5. **Jahon banki.** *Migration and Development Briefs*. Washington D.C.
6. **International Organization for Migration (IOM).** *World Migration Report 2022/2024*. Geneva.
7. **Mukimov, N.** (2021). *O'zbekiston tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlari va tendensiyalari*. Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti.
8. **Abdurahmonov, Q., & Tursunov, B.** (2020). "Mehnat migratsiyasining iqtisodiy o'sishga ta'siri." *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, №3.
9. **Rasulov, A.** (2022). "Markaziy Osiyo davlatlarida tashqi mehnat migratsiyasi: O'zbekiston tajribasi." *O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi*, №5.
10. **UN DESA (United Nations Department of Economic and Social Affairs).** *International Migration Highlights 2023*.
11. **Asian Development Bank (ADB).** *Labor Migration and Remittances in Central Asia*. Manila.
12. **Kurbanov, B.** (2019). "Mehnat migratsiyasi oqimlarining statistik tahlili." *Statistika va iqtisodiyot*, №2.
13. **World Bank Open Data.** Remittances inflow dataset.

INNOVATIVE
ACADEMY